



BOSHLANG'ICH TA'LIMNI O'QITISHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH

Pardaboyeva Madina Farxod qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika fakulteti amaliy psixologiya
yo'nalishi 2-bosqich talabasi
pardaboyeva969@gmail.com

Qarshiboyeva Shaxzoda Akram qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Boshlang'ich ta'lim fakulteti boshlang'ich ta'lim
yo'nalishi 1-bosqich talabasi
24/1-guruh talabasi

qarshiboyevashaxzoda@gmail.com

Komiljonova Sevinch Azamat qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika fakulteti amaliy psixologiya
yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Komiljonovasevinch7@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13969577>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10- Oktyabr 2024 yil
Ma'qullandi: 15- Oktyabr 2024 yil
Nashr qilindi: 22- Oktyabr 2024 yil

KEY WORDS

*Pedagogik texnologiya, zamonaviy
metod, o'qitish jarayoni, ta'lim,
tarbiya, rivojlanish.*

ABSTRACT

*Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim darslarida
innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish
haqida so'z boradi.*

Bugungi kunda pedagogik nazariyadan tashqari zamonaviy pedagogik amaliyot jarayonlarida innovatsion metodlardan foydalanish zamon talabi darajasiga globallashti. Ta'lim jarayonida yangidan yangi metodarni qo'llash hozirgi kundagi o'quvchilarni boshlang'ich ta'limning obyektlaridan biriga aylandi. Innovatsion faoliyat davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, hukumatimizning 2020-yil 7-aprelda qabul qilingan "Innovatsion faoliyat to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonuni, "2022- 2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g' risida"gi Prezident Farmoni qabul qilindi.

Shuningdek O'zbekiston Respublikasining " Ta'lim to'g'risida "gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ga asosan zamonaviy ta'limning ilg'or metodlaridan foydalanish boshlang'ich sinflarda ta'lim oluvchi o'quvchilarning ilmiy ko'nikmalarini oshirishda asosiy me'zon sifatida qabul qilingan. Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Boshlang'ich ta'lim umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lgani sababli ana shu jarayonda o'quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko'proq e'tibor berish lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mas'uliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo'ygan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib beradilar. Bolalarning o'qishga

munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining vazifasi mas'uliyatli ekanligini ko'rsatadi. Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi.

Ta'lim tizimida innovatsion deyilganda, ta'lim maqsadi va mazmuniga yangilik kiritish, yangicha yondashish, pedagog va talabning hamkorligidagi faoliyatini tashkil etish, pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish jarayoni, ta'limning uslub, shakl va vositalarining majmuasi tushuniladi. Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi o'quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko'p qirrali samara keltiradi. Boshlang'ich ta'lim umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lgani sababli ana shu jarayonda o'quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko'proq e'tibor berish lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mas'uliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo'ygan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib beradilar. Bolalarning o'qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining vazifasi mas'uliyatli ekanligini ko'rsatadi. Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo'zg'otish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvidir. Ta'lim tizimida innovatsion deyilganda ta'lim maqsadi va mazmuniga yangilik kiritish yangicha yondashish pedagog va talabning hamkorligidagi faoliyatini tashkil etish, pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish jarayoni, ta'limning uslub, shakl, va vositalarining majmuasi tushuniladi.

Innovatsiya - (inglizcha "Innovation" - yangilik kiritish) - tizim ichki tuzilishini o'zgartirish, amaliyot va nazariyaning muhim qismi. Pedagogik yangilik esa pedagogik faoliyatda ilgari ta'lim jarayonida noma'lum bo'lgan o'zgarishlarni kiritish orqali ta'lim va tarbiyaning nazariy va amaliy jihatini boyitish va uni rivojlantirish vositasidir. Bundan anglashiniladiki, innovatsion jarayon yangilikning kiritilishi va shart- sharoitlari, tizimni yangi ko'rsatgichlarga muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlovchi o'zgarishdir. Demak innovatsiya innovatsion o'zgarishlarga tayyorgarlik ko'rish va uni amaliyotga kiritish jarayonidir. O'qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim va markaziy masalasi o'quv jarayonini sifatli va samarali tashkil etishdan iborat. Bu faoliyat shaxsan o'qituvchini o'zigagina ta'alluqli bo'lib qolmay, bir qator shaxs, guruh, omma, institutsion mashtabda ham bo'lishi mumkin. Innovatsion ta'lim tizimi hozirgi davrda ta'lim sohasining barcha jabhalarida mutaxassislarning e'tiboriga tushib jadal rivojlanib borayotgan bilimlar tizimidir. Uning ta'limiy ahamiyatini anglagan pedagoglar shu bois an'anaviy ta'limda ilg'or innovatsiyalardan foydalanib ta'limni tashkillashtirayaptilar. Hozirgi kunda rivojlanib borayotgan mazkur yangi ta'lim shaklining asosiy vazifasi hukmron bo'lib turgan butun o'quv tarbiya tizimi nazariyasini innovatsiya asosida qayta tashkil etib o'zlashtirishdir. Innovatsiyaning asosiy tushunchalari sifatida yangilik, g'oya, vosita (yangi metod)larni olish mumkin. Yangilikni uzatish, undan

foydalanish yo'li hamda aniq maqsadga yo'naltirish bilan odamlar ehtiyojini zamonaviy vositalar bilan ta'minlash mumkin. Albatta, bu kabi yangiliklar qandaydir sifat o'zgarishlariga olib keladi. Bu esa o'z navbatida pedagogik ish faoliyatini sifat va samaradorlikni ta'minlashga, ta'limning jamiyatdagi hayotiy talablarga javob berishini yaqqol ko'rsatishni ta'minlaydi. Innovatsiyaning maqsadi – sarflanayotgan mablag' va kuchdan eng yuqori va sifatli natija olishdan iborat.

Innovatsion muhit – bu pedagogik jamoada, umuman, ta'lim muassasasida shunday ijodiy, samimiy, do'stona sharoit tug'diradiki, unda o'qituvchi o'zini erkin his qiladi, jamoada ichki intilish, moddiy, ma'naviy qiziqish yuqori darajada bo'ladi. Biz zamonaviy o'qitish usuli deb atagan yangi o'qitish usuli ko'proq amaliy faoliyatga asoslangan bo'lib, o'quvchining ongini markazlashtiradi va bu ularni o'rganish jarayoniga to'liq jalb qiladi. Zamonaviy o'qitish usulida o'quv dasturini o'qitish va rejalashtirish o'quvchini asosiy maqsad sifatida ushlab turish bilan amalga oshiriladi. Darhaqiqat, innovatsion yondashuvlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi. Bugungi davr axborot uzatish hajmi va tezligi jihatlaridan chegaralanmagan butunjahon axborot tarmog'idan faol foydalanishi bilan xarakterlanadi. Multimedialardan va animatsiyalardan keng foydalanish o'quvchilarni darslarga bo'lgan qiziqishi va bilim saviyasini oshiradi. O'quvchilarga kompetensiyalarni har bir dars ko'lamida puxta singdirib borishimiz kerak. Bunda biz o'qitishda yangi ped texnologiyalardan, innovatsion g'oyalardan, interfaol uslublar vakreativ yondashuvlardan o'rinni ravishda o'z vaqtida foydalana bilishimiz lozim. O'qitish jarayoni o'qituvchi hamda o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati o'quv materialini bayon qilish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e'tiqodini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat. O'z ishiga ixlos bilan qaragan o'qituvchida chinakam ehtiros bo'ladi. Boshlang'ich sinf ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqtiradi, darslarda faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi. Innovatsion texnologiyalar o'qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda ko'proq bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olish lozimligini unutmaslik kerak. Ularga oddiy, oson va vaqt kam sarflanadigan o'yin mashqlardan foydalanib darslar o'tish yaxshi samara beradi. Ko'proq atrof-muhit bilan bog'lab o'tilgan mashg'ulotlar bolalar ongini, dunyoqarashini, erkin fikrlash, bayon etish qobiliyatini, mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi. Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. Innovatsion texnologiyalardan foydalanib o'tilgan darsda o'quvchilar o'z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyish qilishga erishadilar, jamoa bilan ishlash malakasiga ega bo'ladilar, o'zgaralar fikrini hurmat qilishni o'rganadilar. Bu esa, darsning samaradorligini oshirib, ta'lim sifatini kafolatlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduqodirov A.A., Begmatova N.X. Ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti (Uslubiy qo'llanma)- Qarshi: 2011.

2. Babayeva D. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. TDPU. 2018.
3. Norbo'taev X., Eshquvvatov SH. Boshlang'ich sinflarda didaktik o'yinli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi. // «Zamonaviy ta'lim», 2015, 6-son. -67- 68-b.
4. Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - T.:Fan 2006
5. Norbo'taev X., Rahmatullaev B.A. Fanlararo o'qitishda sinxron (vertikal) bog'lanish. // «Zamonaviy ta'lim», 2015, 11-son. -31-36-b.
6. Professional Self - Self Awareness and Career Choice. (2024). Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments, 2(5), 84-88. <https://euroasianjournals.org/index.php/pc/article/view/357m>
7. Ozodqulov Olimjon Bahodir o'g'li. (2024). RAHBAR VA XODIM MUNOSABATLARINING BOSHQARUV JARAYONIDAGI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 41(1), 110–113. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/12079>
8. Xusanova, N. . (2024). FACTORS INFLUENCING THE PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PRESCHOOL CHILDREN WITH DIFFERENT TEMPERAMENTS. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 4(10), 17–20. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/37667>
9. Amangeldiyev, S. . (2024). THE IMPORTANCE OF SOCIAL ACTIVITY IN OLD AGE: A KEY FACTOR FOR PSYCHOLOGICAL WELL-BEING. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 4(10), 12–16. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/37666>
10. Usarboeva , D. (2024). DEVELOPMENT OF THE MECHANISM FOR FORMING ACADEMIC MOBILITY OF STUDENTS. Бюллетень педагогов нового Узбекистана, 2(8), 40–43. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/yopa/article/view/37442>
11. Abdurasulov, J. (2024). PEDAGOGICAL PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF MILITARY PATRIOTIC EDUCATION IN GENERAL SECONDARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS. В INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY (Т. 4, Выпуск 7, сс. 38–40). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.12721051>
12. Abduqodirova, & Pardaboyeva, M. (2024). THE ROLE OF EMOTIONAL CREATIVITY IN STUDENTS' DECISION-MAKING. INTERNATIONAL CONFERENCE OF NATURAL AND SOCIAL-HUMANITARIAN SCIENCES, 1(7), 27–30. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13819583>
13. <https://universalconference.us/universalconference/index.php/ICNSHS/article/view/2371>
14. Тожибоев Марат Нормадович ТАЛАБАЛАРНИНГ ПЕДАГОГИК ТАФАККУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШГА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВ // SAI. 2023. №Special Issue 10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/talabalarning-pedagogik-tafakkurini-rivozhlantirishga-innovatsion-yondashuv>
15. Zilola Dilmurodova. (2024). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL NATURE OF ABILITY. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 27, 1–4. Retrieved from <https://ejird.journalspark.org/index.php/ejird/article/view/1092>
16. Абдусаматова Шахло Сайтмуратовна. (2024). РОЛЬ ПСИХОЛОГИИ В ФОРМИРОВАНИИ ТОЛЕРАНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ. IMRAS, 7(7), 39–43. Retrieved from <https://journal.imras.org/index.php/sps/article/view/1664>
17. Ozodqulov, O. (2024). VATANPARVARLIK RUHINI TALABALARDA RIVOJLANTIRISH

PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. В CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH (Т. 2, Выпуск 10, сс. 37–41). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13945058>



INNOVATIVE
ACADEMY